



“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA ARAB TILIDAGI O‘ZLASHMALAR

Tojiddinov Kamoliddin Sadritdin o‘g‘li

*Yangi asr universiteti “Lingvistika: arab tili” mutaxassisligi 1-bosqich
magistranti
Ilmiy rahbar*

Bobojonov G‘ulomjon

Yangi asr universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abstract: Amir Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” asarida arabcha o‘zlashmalarni ko‘p o‘rinlarda uchratish mumkin. Tilshunoslikda o‘zlashma tushunchasi juda muhim. O‘zlashma bu bir tilning lug‘at tarkibiga boshqa til elementlarining kirib kelishi va o‘zlashib ketishi jarayonidir. O‘zbek tilida arab, fors, rus va boshqa tillardan o‘zlashmalar mavjud bo‘lib, ular tarixiy, madaniy va diniy aloqalar natijasida shakllangan. Arabcha o‘zlashmalar, ayniqsa, o‘zbek tilining leksik qatlamida alohida o‘rin tutadi. Chunki arab tili islom dini, Qur‘on, hadis, fiqh, tasavvuf, falsafa va ilm-fan tili sifatida Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga chuqur kirib kelgan. Shu bois arabcha so‘zlar o‘zbek tilida diniy, huquqiy, ilmiy va adabiy terminologiyaning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, “ilm”, “adab”, “hikmat”, “ma‘rifat”, “adolat”, “qalam”, “kitob”, “maktab”, “madrasa” kabi so‘zlar arab tilidan kirib kelib, o‘zbek tilining lug‘at boyligini kengaytirgan. O‘zlashmalar tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi, yangi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi, madaniy va ilmiy taraqqiyotga zamin yaratadi. O‘zbek leksikologiyasida arab tilidagi o‘zlashmalarni o‘rganish til tarixini, madaniy aloqalarni va ilmiy merosni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Amir Alisher Navoiyning so‘zga bo‘lgan e‘tibori muhim bo‘lgan. So‘zimiz tasdig‘ini allomaning har bir asari misolida, jumladan “Nazmul javohir” asari misolida ko‘rish mumkin

Kalit so‘zlar: diniy yoki ilmiy, hikmat, fors tillaridagi.

Amir Alisher Navoiy turkiy adabiyotning sultoni, buyuk mutafakkir va davlat arbobi sifatida 15-yuz yillikda yashab ijod qilgan. U o‘z davrida turkiy tilning adabiy maqomini yuksaltirdi, forsiy va arabiy adabiyotlar bilan teng darajada turkiy tilning imkoniyatlarini namoyon qildi. Navoiy o‘z asarlarida arab va fors tillaridagi o‘zlashmalardan keng foydalangan, ammo ularni turkiy tilning ruhiga moslashtirib, yangi badiiy va ilmiy ma‘no kasb ettirgan. Bu jarayon turkiy tilning boyishini, adabiy til sifatida shakllanishini ta‘minlagan. Navoiy o‘z asarlarida arab tilidagi o‘zlashmalarni faqat diniy yoki ilmiy atama sifatida emas, balki badiiy obraz yaratishda ham qo‘llagan. Masalan, “hikmat”,



“ma’rifat”, “adolat”, “sabr”, “taqvo” kabi soʻzlar uning asarlarida nafaqat diniy tushunchani, balki badiiy-estetik ma’noni ham ifodalagan. Alisher Navoiy ijodi va faoliyatini oʻrgangan olimlar ham koʻplab soʻzlarni bayon qilgan holda tadqiqot olib borishmoqda. Navoiyshunos olimi Burobiya Rajabova hazrat Navoiyning soʻzlarini eʼtirof etar ekan oʻz asarini hazrat Navoiy tilida “Oʻzum sori boqma, soʻzum sori boq”⁴⁸ deb nomlagan. Yana bir asarida Alisher Navoiyning oʻz asarlarida yaratgan onalarning badiiy obrazlarini aniq misollar bilan yoritgan⁴⁹.

“Mahbubul qulub” Alisher Navoiyning nasriy asarlaridan biri boʻlib, unda axloqiy, ijtimoiy, falsafiy va diniy masalalar yoritilgan. Bu asar xalq uchun pand-nasihat, hikmatlar toʻplami sifatida yaratilgan. Asarda arabcha oʻzlashmalar juda koʻp uchraydi. Chunki Navoiy axloqiy va diniy masalalarni bayon etishda arab tilidan kirib kelgan termin va tushunchalardan foydalangan. Masalan, “hikmat”, “ma’rifat”, “adolat”, “ilm”, “sabr”, “taqvo”, “rahmat”, “zuhd”, “ibodat”, “haqiqat” kabi soʻzlar asarda keng qoʻllanilgan. Bu soʻzlar arab tilidan kirib kelgan boʻlsa-da, Navoiy ularni turkiy tilning badiiy va ma’naviy ruhiga moslashtirgan. Natijada, “Mahbubul Qulub” asari oʻzbek tilining arabcha oʻzlashmalarni qanchalik chuqur oʻzlashtirganini koʻrsatadi. Asarda arabcha oʻzlashmalar faqat termin sifatida emas, balki xalqning ma’naviy hayotini ifodalovchi asosiy tushunchalar sifatida namoyon boʻladi. Bu esa arabcha oʻzlashmalarning oʻzbek tilidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Amir Alisher Navoiy ijodini oʻrganish maqsadida arab, fors, turkiy soʻzlardan foydalanib lugʻatlar ham tuzila boshlangan. Arab, fors va turkiy soʻzlar allaqachon oʻzlashmaga aylanib ulgurgan boʻlsa-da, aksar soʻzlarni tushunish mushtariylarga qiyinchilik tugʻdiradi. Shu sababli ham Navoiy asarlari lugʻatiga muhtojlik sezilaveradi. Ana shunday dastlabki lugʻatlardan biri filologiya fanlari doktori Botirbek Hasanov tomonidan tuzilgan “Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat”⁵⁰dir.

Asarda uchraydigan arabcha oʻzlashmalarni quyidagicha batafsilroq tahlil qilish mumkin:

“Mahbubul qulub” asarida uchraydigan arabcha oʻzlashmalar koʻpincha diniy va axloqiy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan:

- Ilm – bilim, ma’rifat.
- Hikmat – donolik, chuqur ma’no.

⁴⁸ Burobiya Rajabova. Oʻzum sori boqma, soʻzum sori boq. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2015. – 84 b.

⁴⁹ Burobiya Rajabova. Onalar bilan suhbat. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2014. – 60 b.

⁵⁰ Botirbek Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. 1993. – 375 b.



- Adolat – tenglik, haqiqatni qaror toptirish. Navoiy tili lugʻatida “odillik” maʼnosini anglatishi va quyidagi misralarda aks ettirilgani keltiriladi:

*Koʻngulni zulm ila buzding, bale, boʻlur maʼmur,
Shaheki, mulkida ehson ila adolati bor.*

Badoeʼul bidoya, I-180⁵¹

- Sabr – chidam, matonat.
- Taqvo – Allohdan qoʻrqish, eʼtiqod.
- Rahmat – mehr, shafqat.
- Zuhd – dunyodan voz kechish.
- Ibodat – diniy amallarni bajarish.
- Haqiqat – rostlik, chinlik.

Bu soʻzlar arab tilidan kirib kelgan boʻlsa-da, Navoiy ularni turkiy tilning badiiy va maʼnaviy ruhiga moslashtirgan. Natijada, “Mahbubul Qulub” asari oʻzbek tilining arabcha oʻzlashmalarni qanchalik chuqur oʻzlashtirganini koʻrsatadi.

Arabcha oʻzlashmalarning “Mahbubul Qulub”dagi ahamiyati shundaki, ular asarning mazmunini chuqurlashtiradi, falsafiy va axloqiy gʻoyalarni ifodalashda vosita boʻlib xizmat qiladi. Navoiy arabcha soʻzlarni oʻzbek tilining badiiy uslubiga singdirib, ularni xalq uchun tushunarli va taʼsirli qildi. Bu jarayon oʻzbek adabiy tilining shakllanishida muhim bosqich boʻldi. “Mahbubul Qulub”dagi arabcha oʻzlashmalar oʻzbek tilining diniy va axloqiy terminologiyasini boyitdi, xalqning maʼnaviy hayotini ifodalashda asosiy vosita boʻldi. Shu bois arabcha oʻzlashmalarni oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir.

“Mahbubul qulub” asari Alisher Navoiyning nasriy asarlaridan biri boʻlib, unda axloqiy, ijtimoiy, falsafiy va diniy masalalar yoritilgan. Bu asar xalq uchun pand-nasihat, hikmatlar toʻplami sifatida yaratilgan. Asarda arabcha oʻzlashmalar juda koʻp uchraydi. Chunki Navoiy axloqiy va diniy masalalarni bayon etishda arab tilidan kirib kelgan termin va tushunchalardan foydalangan.

Asarda arabcha oʻzlashmalar faqat termin sifatida emas, balki xalqning maʼnaviy hayotini ifodalovchi asosiy tushunchalar sifatida namoyon boʻladi. Bu esa arabcha oʻzlashmalarning oʻzbek tilidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Mahbubul Qulub” asarida arabcha oʻzlashmalar juda katta ahamiyatga ega. Ular asarning mazmunini chuqurlashtiradi, falsafiy va axloqiy gʻoyalarni ifodalashda vosita boʻlib xizmat qiladi, oʻzbek tilining lugʻat boyligini kengaytiradi va adabiy til sifatida shakllanishiga hissa qoʻshadi. Alisher Navoiy arabcha oʻzlashmalarni turkiy tilning ruhiga moslashtirib,

⁵¹ Berdak Yusuf. Navoiy tili lugʻati. – Toshkent: “Sharq”, 2018. – B. 37.



ularni xalq uchun tushunarli va ta'sirli qildi. Bu jarayon o'zbek adabiy tilining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. "Mahbubul Qulub"dagi arabcha o'zlashmalarni o'rganish til tarixini, madaniy aloqalarni va ilmiy merosni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotning eng yirik namoyandasi sifatida nafaqat badiiy ijodda, balki diniy-ma'rifiy tafakkurda ham o'zining chuqur izini qoldirgan. Uning "Mahbub ul-qulub" asari axloqiy-didaktik ruhda yozilgan bo'lib, unda insoniy fazilatlar, diniy qarashlar va ijtimoiy hayotga oid mulohazalar jamlangan. Asarning muqaddima qismida arab tilidan o'zlashgan ko'plab so'z va iboralar uchraydi. Bu o'zlashmalar asarning diniy-falsafiy ruhini belgilashda, muqaddaslik ohangini yaratishda va ilmiy hujjatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

15-yuz yillikda arab tili Sharq dunyosida ilm, din va falsafa tili sifatida hukmron edi. Qur'on va hadis arab tilida bo'lgani uchun diniy asarlar arabcha terminlarga tayangan. Navoiy arab tilini ilmiy hujjatlik va diniy asos sifatida qo'llagan. Bu orqali u o'z asarlarini Qur'on va hadisga bog'lab, diniy asosga tayanganini ko'rsatadi. Arab tilidan o'zlashmalar Navoiy asarlarida nafaqat diniy, balki falsafiy va axloqiy ma'nolarni ham ifodalashda vosita bo'lib xizmat qilgan.

Qur'ondan keltirilgan iboralarni ham asarda uchratish mumkin. "Mahbub ul-qulub" muqaddimasidagi arab tilida keltirilgan o'zlashmalarni quyidagi tartibda keltirish mumkin:

- Bismillohir rohmanir rohim – Qur'onning boshlanish iborasi, asarga muqaddaslik ohangini beradi.
- سبحان ذي الملك والملكوت سبحان ذي القدر والجبروت جلت الاوه⁵² – tasbih jumalari, Allohning qudrati va ulug'ligini ta'kidlab keladi.
- وَمَا يَنْطِقُ عَنِ الْهَوَى⁵³ – Qur'oni karim oyati, Payg'ambar (s.a.v.) nutqining vahiyga asoslanganini ko'rsatadi.

⁵² Tarjimasi: Mulk va podshohlik egasi (Alloh) pokdir, qudrat va ulug'lik egasi (Alloh) pokdir, ne'matlari ulug' bo'lgan va ne'matlari barchaga barobar bo'lgan bir Allohdan o'zga iloh yo'qdir. Qarang: Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. J.9. – Toshkent: "G'afur G'ulom" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – B. 450.

⁵³ Tarjimasi: "(Yana u Qur'onni) xomxayoldan olib so'zlayotgani ham yo'q". (Najm surasi, 3-oyat). Qarang: Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti", 2004. – B. 526.



- “إِنَّ هُوَ إِلَّا وَحْيٌ يُوحَى”⁵⁴ – Qur’oni karim oyati, vahiyning ilohiy manbaini tasdiqlaydi.

- “رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ”⁵⁵ – Qur’oni karim oyati, Payg‘ambarning (s.a.v.) butun olam uchun rahmat ekanini bildirib kelgan.

Bu iboralar asarga hujjatlik, diniy asos va muqaddaslik ohangini beradi. Undagi o‘zlashmaga aylangan diniy-ma’rifiy • Hamd – maqtoov, shukrona.

- Sano – madh, ta’rif.
- Tanzih – Allohni nuqsonlardan poklash.
- Taqdis – muqaddaslik berish.
- Qahhor – g‘olib, mutlaq qudrat egasi.
- Jabbor – buyuk, hukmron.
- Malakut – ruhiy olam, ilohiy saltanat.
- Xilofat – xalifalik, vakolat.
- Musallam – tasdiqlangan, shubhasiz.
- Nubuvvat – payg‘ambarlik.
- Ashob – sahobalar.

Bu atamalar arab tilidan o‘zlashib, diniy-falsafiy mazmunni ifodalaydi. terminlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Arab tilidagi o‘zlashmalar asar matniga ilmiylik va hujjatlik ohangini bergan. Qur’on oyatlari orqali Navoiy diniy asosga tayanganini ko‘rsatadi. O‘zlashmalar poetik obrazlar yaratishda ham qo‘llanadi: malakut, rahmatan lil-‘alamin kabi so‘zlar ilohiy tasvirni kuchaytiradi. Bu orqali asar nafaqat diniy, balki badiiy jihatdan ham boyitiladi.

Arab tilidan o‘zlashmalar Navoiy dunyoqarashining islomiy asosga tayanganini ko‘rsatadi. U diniy terminlarni axloqiy-didaktik g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirgan. Arabcha iboralar orqali asar Sharq ma’naviy merosi bilan bog‘langan. Bu Navoiy asarlarining diniy-falsafiy asosini mustahkamlab, uni turkiy adabiyotda yuksak darajaga ko‘targan.

Tilshunoslik jihatidan yana quyidagilarni alohida keltirib o‘tish mumkin:

- O‘zlashmalar fonetik moslashuv bilan kirgan: hamd, sano, taqdis.
- Ba’zilar to‘liq arabcha shaklda saqlangan: Qur’on oyatlari.

⁵⁴ Tarjimasi: “U (Qur’on) faqat (Alloh tomonidan) nozil qilinayotgan (tushirilayotgan) bir vahiydir”. (Najm surasi, 3-oyat). Qarang: Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2004. – B. 526.

⁵⁵ Tarjimasi: “(butun) olamlarga ayni rahmat”. (Anbiyo surasi, 107-oyat). Qarang: Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2004. – B. 331.



- Semantik jihatdan ular diniy, falsafiy va axloqiy ma'nolarni ifodalaydi.

- Morfologik jihatdan o'zlashmalar turkiy til qoidalariga moslashgan: masalan, hamd so'zi turkiy qo'shimchalar bilan ishlatilishi mumkin.

“Mahbub ul-qulub” asarida arab tilidan o'zlashmalar juda ko'p. Ular asarning diniy-falsafiy ruhini belgilaydi. Arabcha terminlar matnga ilmiylik, hujjatlik va badiiylik ohangini qo'shadi. Navoiy arab tilidan foydalangan holda turkiy adabiyotning diniy-ma'rifiy asosini mustahkamladi. Bu o'zlashmalar asarning muqaddaslik ohangini yaratib, uni Sharq adabiyotining yuksak namunalaridan biriga aylantirdi.

Foydalanilgan Manba Va Adabiyotlar Ro'yxati

1. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2004. – 624 b.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. J.9. – Toshkent: “G'afur G'ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – 786 b.
3. Burobiya Rajabova. O'zum sori boqma, so'zum sori boq. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2015. – 84 b.
4. Burobiya Rajabova. Onalar bilan suhbat. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2014. – 60 b.
5. Amir Alisher Navoiy. Nazmul javohir. Tarjimonlar: Bahmon Akbariy, Suyuma G'aniyeva. – Tehron: “Intasharot baynal milaliy al-hadi”, 2007. – 88 b.
6. Botirbek Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. 1993. – 375 b.
7. Berdak Yusuf. Navoiy tili lug'ati. – Toshkent: “Sharq”, 2018. – 496 b.